

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDA TABIATGA MEHR VA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Durmanova Gulchehra Dusiyarovna

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

*“Pedagogika, psixologiya va ta’lim
texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

Turdiyev Azamat G‘ayratovich

*Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta’lim
fakulteti maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida*

Annotatsiya

Ushbu maqolaning maqsadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish, vatanga mehri bo’lish, ekologik ta’lim tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo’lgan yoshlarni tarbiyalashdir

Tayanch iboralari: tabiat go‘zalligi, aqliy, axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, estetik, tarbiya, tarbiyachi, mahorat, tarbiyaviy imkoniyat.

Абстрактный: Цель данной статьи - подготовить детей дошкольного возраста к школе, бережно относиться к природе в процессе приобщения к природе, бережно относиться к Родине, осуществлять экологическое воспитание, воспитывать молодых людей, обладающих отличными знаниями о природе. природа.

Основные фразы: природная красота, умственная, моральная, физическая, экономическая, экологическая, эстетическая, образование, педагог, умение, возможность получения образования.

Abstract: The purpose of this article is to prepare children of preschool age for school, to be careful with nature in the process of introducing them to nature, to be kind to the motherland, to implement ecological education, to educate young people who have excellent knowledge about nature.

Basic phrases: natural beauty, mental, moral, physical, economic, ecological, aesthetic, education, educator, skill, educational opportunity.

Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda bugungi kun maktabgacha ta’lim tizimi oldiga ham ma‘nan, ham jismonan, ham intellektual, har tomonlama mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash vasifasi yuklatilgan.

Shu vazifalarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari quyidagi tamoyillar asosida amaliyotga tatbiq etilmoqda:

- har bir tarbiyalanuvchining noyobligi;
- "Men" konsepsiyasini yaratishda tarbiyalanuvchining roli;
- tarbiyalanuvchining huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;
- tarbiyalanuvchi ta'limi va rivojlanishida kattalarning o'rni;
- tarbiyalanuvchilar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli

har bir tarbiyalanuvchiga moslashuvchan, individual variativlik asosida yondashish.

- Davlat talablarida maktabgacha ta'lim tushunchasiga: «maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda tarbiyalanuvchida ma'naviy meyorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon», tarzida ta'rif berilgan. Ushbu jarayonni talab darajasida tashkil etish va o'tkazish maqsadida Maktabgacha ta'lim tashkilotinipng "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

- "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining maqsadi tarbiyalanuvchilarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan hamda, tarbiyalanuvchini jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sog'lig'ini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan

barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

- Maktabgacha ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlar pedagoglar faoliyatida sifat o'zgarishlar amalga oshirish zaruriyatini belgilab bermoqda.

- Pedagog-tarbiyachi bugungi kunda tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirishda uning individualligini inobatga olib turli xil faoliyatda o'zini erkin namoyon etishiga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratuvchisi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lib bermoqda. Tarbiyachi tarbiyalanuvchiga yaqin bo'lgan inson sifatida uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli tuman omillar tizimida tarbiyalanuvchi shaxsi va faoliyati uning to'laqonli rivojlanishiga imkon beruvchi yetakchi sharoitlardan biri ekanligini inobatga olishi lozim.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga

nisbatan muhabbat uyg'otish ona vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muxim vazifalaridan biri xisoblanadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan extiyotkorlik bilan munosabatda bulishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi.

Bolalar tabiat xaqida juda bo'lmaganda ilk bilimlarni egallab, o'simliklarni o'stirish, xayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdiridagina ularda tabiatga nisbatan extiyotkorlik va g'amxo'rona munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati bo'ladi. Bolalarda tabiat, jonajon o'lka, ona vatanga muxabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan. «Onalar maktabi» xushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi.

«Ona tili» maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi. «Gimnaziya»da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni «aql xazinasi»ga joylayotgan kuz faslini eslatadi.

Va nihoyat, «Akademiya» yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan kishiga o'xshatiladi.

Ya.A. Komenskiy «Onalar maktabi»da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

- suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni;

– yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

– o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak. Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishining mazmuni yoritilib, jonli va jonsiz tabiat, Yer kurrasi, xayvonot dunyosi, o'simliklar dunyosi xaqida tasavvurlarga ega bo'lish bilim, malaka va kunikmalarni shakllantirish yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Bu talablar bolalarni birinchi navbatda ularning o'zlariga qadrdon bo'lgan, ular tug'ilib o'sgan o'lkalarning tabiati bilan tanishtirilgandagina bajarilishi mumkin, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning bilimni shakllantirish uni o'rab olgan borliq bilan bevosita munosabatda bulishi jarayonida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi muxim ahamiyatga ega bo'lib, xuddi mana shu yoshda bolada ma'naviy madaniyatning bir qismi xisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevorlari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi - maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayondir.

Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muxofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muxofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo'lib xisoblanadi. Maktabgacha yoshda bo'aning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi - tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligini kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda (uy sharoiti, mexnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanish tashkil qiladi.

Tabiatga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar bola tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog'liqdir. Ekologik mazmun bilan bog'liq bo'lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o'zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo'naltiradi. Tabiatga b'lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo'yicha bilim aloxida o'rin egallaydi. Tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatni rivojlantirish (mashg'ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi xayotiy vaziyatlar) bolaning ma'naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yaqindan bog'liq.

Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan bahra olish, quvonish, taajjublanish, o'zining qilgan ishidan mag'rurlanish, qoniqish xissini uyg'ota bilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat, yilning turli fasllarida unda ruy berib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Xosil qilingan bilimlar asosida tabiat xodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo'lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo'yish, uni extiyot qilib e'zozlash, tirik jonivorlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish tabiatga qiziqish o'yg'otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mexnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko'paytirib borayotgan kattalarning mexnatiga xurmat bilan qarash kabi eng yaxshi xususiyatlarni shakllantirib borishga xam yo'l ochadi.

Bolalap tabiatda qilgan mexnatlari natijalapidan xypcand bo'ladilar, tabiatga nicbatan do'stona munosabatlarini namoyon etadilar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar turli jonzotlar, o'simliklarni parvarishlaganlaridan so'ng, ularning kayfiyatlari kutarilib, ma'naviy

ozuqa oladilar. Tabiat xaqida bolalarga kitob o'qib berish orqali tabiat xaqidagi bilim, ko'nikma va malakalar oshirib boriladi.

Ekologik ta'lim-tapbiya maktabgacha yoshdagi bolalapning ekologik madaniyatli bo'lib voyaga etishida muxim axamiyat kacb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O.U.Xasanboyeva, X.D.Djabborova. «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi». T., «Cho'lpon» 2007 y.
2. Q.Haydarov. S.Nishonova. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T., «O'qituvchi» 1992 y.
3. «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturi. T., «Ma'rifat madad» 2001 y.
4. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi balalarga ekologik tarbiya berish. T., «O'qituvchi» 1995 y.
5. K.Xoshimov va boshqalar. «Pedagogika tarixi». Qo'llanma. T., «O'qituvchi» 1996 y.